

– Men bu yil ham sevimli gazetamga obuna bo‘ldim, – deydi parkentlik tengdoshingiz Sadoqat DADAYEVA. – Siz-chi?

ЎЗБЕКИСТОН
РЕСПУБЛИКАСИ
МILLIY КИТОБ ПАЛАТАСИ

Tong YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan



2007-yil
16 – 22 - iyul
N:29
(66622)

«UR-R-E, «GAGARIN»GA KETAYAPMIZ!»



2 – betda



«ISTIQLOL KARVONI» YO'LGA CHIQDI

Aziz bolalar! «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan tashkil etilgan «Istiqlol karvoni» yo'lga chiqdi.

Bu – «Mustaqillik: Men va imkoniyatlarim» mavzuidagi yoshlar marafoni bayram oldidan uyushtirilgan tadbirlardan biridir.

Marosim ishtirokchilari 14 kun davomida mamlakatimizning barcha viloyatlarida Sizlarning aziz mehmoningiz bo'ladilar. Shuningdek, ular joylarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar va fermerlar ishlari bilan yaqindan tanishadilar.

KITOB KERAKMI, MARHAMAT!

3-6 – betlarda

MENING XORIJLIK DUGONALARIM

– Bu o'zimizda ishlab
chiqarilgan chiroyli mashina!
Zo'r-a!



7 – betda

«UR-RE, «GAGARIN»GA KETYAPMIZ!»

Shunday quvonchli hayqiriqlar bilan «Sharq» nashriyot-matbaa konserniga qarashli «Fazogir Gagarin» oromgohiga o'tlangan bolajonlar kuni kecha ota-onalari bag'riga sog'salomat qaytishdi. Ko'ngilli, maroqli dam olishgani yuz-u ko'zlaridan sezilib turibdi. Qay birlari bilan gaplashmang, hayajon-u taassurotlari bir olam:

Nigora TOJIBOYEVA,
«Uran» sayyorasidan:

– Oromgohga birinchi bor kelishim. Avvalligina zerikib qolsam kerak, degan hadikda edim. Bu yerning tabiati, musaffo havosining o'ziyoq maftun etdi bizni. Bo'sh vaqtimizni asosan ma'naviyat va ma'rifat markazida o'tkazdik. Bu yerda detektiv, fantastik, sarguzasht janridagi qiziqarli kitoblar juda ko'p ekan. Bu yil yana «Sharq» nashriyoti tomonidan 960 dona lotin grafikasidagi kitoblar keltirilibdi. U yerdagi gazeta taxamlari orasida «Tong yulduzi» ham bo'lganda, miriqib o'qirdik. Markazda davlat ramzlari, buyuk siymolar hayotiga oid, shuningdek, ijtimoiy himoya yili, «Universiada–2007», mustaqilligimizning 16 yilligiga bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qildik. Bu tadbirlarning bariga Feruza opa Xudoyberganova boshchilik qildilar.

Shahnoza TURSUNOVA,
2-sayyoradan:

– Toshkentdagi o'zbek-yapon markazida o'rgan-ganlarimni bu yerdagi tengdoshlarimga ham o'rgatdim. «Origami» – yapon qog'oz san'ati bo'yicha dars o'tdim, yaponcha choy damlash marosimini ko'rsatib berdim. «Eteyegami» – buyumga qarab chizish hamda «Oyatori» – ip o'yini kabi mashg'ulotlarni bolalar juda qiziqib o'rganishdi.

Feruza XUDOYBERGANOVA,
bosh yetakchi:


– Bu oromgohda birinchi yili ishlashim. Avval boshqa oromgohlarda ishlaganim bois, bolajonlarga qanday o'yinlar, tadbirlar qiziqarli bo'lishini yaxshi

AZIZA,

6-sayyoradan:

– Men esa o'tgan yili ham shu oromgohda dam olgandim. Bu yil «Quvnoq darslar», «Ertaklarning yangicha talqini», «Tanishuv kechasi» kabi har kuni o'tadigan tadbirlarning o'tkazilishi bizga juda ma'qul bo'ldi. Ovqatlari ham juda mazali, xuddi oyijonim pishirgan ovqatlarga o'xshaydi. Tengdoshlarimiz olib borgan radioeshittirishlar orqali Toshkentimizning Islom madaniyati poytaxti bo'lganini, Davlatimiz Gerbining ma'nosini bilib oldim. Maqtanyapti demanglar-u, sayyoramiz «Tabiatni asraylik», «Ertaklarning yangicha talqini» kabi tanlovlarda g'oliblikni qo'ldan berishmadi.

Quvnoq yozim o'tar soz!



bilaman. «Dunyo bo'ylab» tadbirida bolajonlarimizni dunyo xalqlari raqslari bilan tanishtirishga harakat qilgan bo'lsak, «Quvnoq mahalla» o'yini orqali milliy urf va an'alarimiz, o'yinlarimiz, folklor qo'shiqlarimizni namoyish etdik. Ayniqsa, «Qo'shig'im, jon qo'shig'im» tanlovida o'g'il-qizlarimiz bajon-u dil ishtirok etishdi...

Marjonaxon EGAMBERDIYEVA,
Nigora JALILOVA suhbatlashishdi

IQTISODCHI BO'LSAM...

– Biz 6-sinf dan «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat» fanidan saboq olganmiz. Bu darsni ustozimiz O'rtoq Nafasov juda qiziqarli qilib o'tgani bois ham har yili shu mavzuda tanlov o'tkazardik.



Mana, bu yil maktabni tugatib, iqtisod kollejiga hujjat topshirdik. A v v a l o , m u s t a q i l l i k t e n g d o s h i bo'lganimiz uchun ham bu yil bizga y a x s h i i m k o n i y a t l a r yaratib berildi. Suhbatda ham aynan «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat» to'g'risida savol-javob bo'lib, kollejga qabul qilindik. Biz maktabdagi ustozlarimizdan minnatdormiz.

Umida QAHHOROVA,
Oydinoy HOJIYEVA,
Buxoro viloyati, Romiton tumani

Istiqlolim – istiqbolim

O'ZBEKISTONIM



O'zi xon, o'zi bek deydlar seni,
Moziyga yelkadosh davronlaring bor.
Tarixing ko'p yillar olsa-da qamrab,
Mustaqillik kuning qilgum iftixor.

Tenglar ichra teng deb atarding o'zni,
«Ozodlik» so'zidan yasab ol bayroq.
Ko'p yillar sen shior aylagan so'zlar,
Qo'shtirnoq ichida yozilmish biroq.

Bu kun sening yo'ling yagona, tayin,
Istiqlol yo'lini etding ixtiyor.
O'z tiling, o'z dining, erking qo'lingda,
Yo'qdan yana bor bo'lgan udumlaring bor.

Shukurkim mos bo'lmish ismingga jisming,
O'z uyingga o'zing egasan, shonim.
Bir kunmas, bor kunlar seniki bo'lsin,
Ey, mening mustaqil O'zbekistonim!

O'n olti yildirki ozod, obodsan,
Yuksak cho'qqilarni ko'zlaydi xalqim.
Yaratish, yashnatish zavqi-la yonib,
Faqt ezgulikdan so'zlaydi xalqim.

O'n uch viloyating, o'n uch farzanding,
Jon qadar ardoqli, barin suyasan.
Halovat yo'qotsa qay biri agar,
Xuddi otalardek birga kuyasan.

Andijon, Namangan, so'lim Farg'ona,
Gullarga burkangan chamanlaring bor.
Oy emas, kun sayin chiroyin ochgan,
Poytaxting misoli ko'kdagi hilol.

Islom madaniyatini poytaxti degan,
Yuksak bir sharafta loyiq bo'ldi u.
Islom olamida sening mavqeing,
Yana bir pog'ona ko'tarildi-ku.

Imom al-Buxoriy, al-Marg'inoniy,
Bobolarim ruhi senga madadkor.
Toshkenting husniga holdek yarashgan,
Xastimom masjidi nashqi betakror.

Buxoroi sharifing ko'hna, navqiron,
Osmon ostidagi muzeyga qiyos.
Yomon ko'zdan asrasin uni Oллоhim,
Bo'yniga marjondek tumoringni os.

Besh yil avval Qarshiga borganlar aytsin,
Bugun borsa taniy olarmi uni?
«Ertaklar shahri» deb ta'rifin olgan,
Xivangda mo'jiza bo'lar har kuni.

Dunyoning nigohi qadalgan shahar -
Samarqand nuroniy yoshingdan darak.
Dono yurtboshing bor, o'z xalqi bilan,
Maqsad-u maslagi doim mushtarak.

O'g'lonlaring o'ktam, qizlaring barno,
O'zgacha mehr-la senga bog'langan.
Ozod, hur bag'ringda o'sib, ertangni,
Nurafshon aylashga mahkam chog'langan.

Feruza JALILOVA

CHET ELDA BIZNING



SURAT

– Men maktubim orqali sizlarga yozgi ta'tilni qanday o'tkazayotganim haqida so'zlab bermoqchiman. Asosiy vaqtimni maktabimizda iqtidorli o'quvchilar uchun tashkil etilgan oromgohda o'tkazmoqdaman. Ta'til davomida talaygina kitoblar o'qib qo'ydim, ular ingliz tilida. Chunki men maktabimizdagi ingliz tili klubi a'zosiman. Klubimizda biz inglizcha kitoblardan parchalar tarjima qilamiz, turli tadbirlar o'tkazamiz. Bunda bizga o'qituvchimiz Marg'uba opa Hayitova yordam beradilar. Yaqinda ustozimiz bizni Buxoroga olib bordilar. U yerda chet ellik sayyohlar bilan uchrashib, hamsuhbat bo'ldik. Ularga Buxoro haqida chet tilida so'zlab berdik, esdalik uchun suratga tushdik. Aytishlaricha, suratni «Tong yulduzi» kabi o'z gazetalarida chop etishar emish.

Shahnoza NORMURODOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
12-maktab o'quvchisi

Bahrom MUSLIMOV

BIR HOVUCH OLTIN

(Ertak va ibratli hikoyatlar)

OTA-BOLA

Bor ekan-da yo'q ekan. Quvnoq oilalarning birida Azimbek va Nozimbek degan ota-bola bor ekan. Azimbek Nozimbekni o'qishda, mehnatda irodali, shudli o'g'lim, deb erkalar ekan. Kunlardan bir kun nima bo'libdi-yu, otaning bolaga, bolaning otaga ko'zi tushib qolibdi. Azimbek azim daraxt ustida oyoqlarini chalishtirib, tamaki tutaib o'tirgan Nozimbekka qarab:

– Qo'lingdagi qutichani qush uyasiga qo'yib, o'zing pastga tush, – debdi.

Nozimbek azim daraxt ustidan ohista yerga tushib, salobatli, mehnatkash otasi qarshisida

16



XOTIMA

Bolajonlar, kuyning sehri

Zo'r bo'lar ekan.

Har bir kuyda yuraklarga

Yo'l, bo'lar ekan.

Qarang, bir kuy sehri nogoh

Jabr-u zulmdan,

Ikki jonni xalos qildi

Bevaqt o'limdan ...

15



Necha yil-ki dilimda bor
Shundayin istak,
Kuy sehri-yu may haqida
So'ylamoq ertak.

KIRISH

(Ertak-doston)

KUY SEHRI

Jahongir JO'RA o'g'liga

Qadam SAID MUROD

yalinib:

– Jon Uyuqjon, o'zing meni halokatdan qutqar! – debdi. Laqna Uyuq «xo'p» deb endi dars tayyorlash uchun o'tirgan Po'latjonni birdan uxlatib qo'yibdi. Ertasi kuni tartibini buzgan laqna Uyuq yoqimtoy «5»dan qattiq gap eshitib, shumshuk «2»dan butkul yuz o'g'iribdi. Ezma, behuda o'yinlarning o'ini esa darrov shaxmat-shashka singari qiziq, foydali o'yinlar kelib egallab olibdi. So'ng, ota-onalar majlisidan yaxshi taassurot bilan qaytgan dadasi o'g'liga nasihat qilib:

– Shumshuk «2»ni tezda yo'qot, o'g'lim, –

debdi. Po'latjon ham xo'p debdi-yu, qunt va g'ayrat bilan dars tayyorlab, shumshuk «2»ni birin-kecin borsa-kelmas yerga qarab jo'natibdi.

Po'latjon «2»ni yo'q qilib, «5»ga muyassar bo'lish uchun qunt va g'ayrat bilan muntazam dars tayyorlash, o'tganlarni takrorlab borish birinchi vazifa ekanligini tushunibdi.

O'quvchining sharafi burchi ham shu.

Shunday qilib, shumshuk «2» bahoning g'oyib bo'lganini o'z ko'zi bilan ko'rgan yoqimtoy «5» baho cheksiz izzat-hurmatga sazovor bo'lib, murod-maqsadiga yetibdi.

30

qirg'ish chizig'i

Qizlar dilin band etibdi
Kuylarning sehri.
Malikaning ul cho'ponga
Tushibdi mehri.

Debdi: – Rahmat, shod etdingiz
Bizni begiyos.
Yo'q demassiz kelsak yana
Aylab ilimos.

Cho'pon debdi: – Bosh usiga,
Kelaveringlar.
Men roziman kuyim sizga
Xush yogsa agar.

III

Xar kungiday cho'pon yana
Nayini chalb –
Xarsanglarda o'tirarkan
Hordiq chiqarib.

Shu payt yana olapari
Xura boshlabdi.

7

Cho'pon olis sayhonlikka
Nazar tashlabdi.

Ko'rinibdi yana o'sha
Ikki chavandoz.
Ikki saman ot ustida
Ikki sarvinoz.


Peshvoz chiqib cho'pon bu gal
Kutib olibdi.
Ulamni shod etmoq uchun
Kuylar chalibdi.

Bu voqea davom etib
Tag'in necha bor.
Qizlar kelaveribdilar
Taktir-u taktiror...

VI

Devorning ham qulog'i bor
Deganlariday...
Yaylovdagi shirin subhat,
Jaranglagan nay.

8



22

IANGILIB BAPA

Shohida buvi pashshaning «uvoli»dan
qo'riqib, muloyim so'zladi.

– Teginchoqlik qilma, xo'pmi, pashshavoy.
Pashsha hech narsaga quloq solmay, xiralik
qilaverdi. Shohida buvi uni ko'ylagining uzun
yengi bilan ikki-uch marta haydadi. Biroq,

pashsha yana g'ing'illab kelaverdi. Uyuq
bosgach, Shohida buvi qattiq g'ashi kelsa ham,
ikki ko'zini chirt yumib, bir zum jim yotdi.
Pashsha g'ing'illab uning tepa labiga keldi. Shu
on Shohida buvi birdan aksa urib yubordi va
yumshoq yostiqdan bosh ko'tarib, gapira ketdi:
– G'ashga tegmay qirilib ket! Evaramga
«pashshavoyga ozor berna», demaganimda,
kuning bituvdi-ya, endi haddingdan oshma,
ko'zing sitilguri!..

Shu payt kampirning o'sha evarasi
Qahramonning o'zi eshikdan kichkina shishacha
bilan rezinka tayogcha ko'tarib kirib keldi:

– Buvi-chi, buvi!..

Shohida buvi ko'zoynak taqib unga tikildi:

– Ha, nima deysan, qora ko'zim?

– Eshiting, haligi... O'troqlarim pashshalarni
o'ldirishga kirishdi. Men ham ikki yuztasini
o'ldirib, shu shishachaga joylayman, – dedi u
entikib. Shohida buvining kapalagi uchib ketdi:

– Hoy-hoy, tantaklik qilma, bolajonim. Avvalo,
uyimizda pashsha kam, ploning to'lmaydi. Keyin

24

Qadam SAID MUROD

Jahongir JO'RA o'g'liga


KUY SEHRI

(Ertak-doston)

Bahrom MUSLIMOV

BIR HOVUCH
NITOL

(Ertak va ibratli hikoyatlar)



17

uyatdan qizarib-
bo'zarib tura beribdi.
O'yga cho'mgan
Azimbek «O'rinsiz
g'azab – o'zingga
labdi ichida.
Shu payt Izzatoy
ismini mehribon ona
jim turolmay;
– Siz endi uni
kashanda, ko'ksov
o'g'lim deb erkalay-
sizmi? Tezda «ka-
sa»ning oldini oling,
dadasini, – debdi
eriga. Vazmin er
Azimbek sayr etish
tatimasa ham, chaq-
qon, xushbichim
o'g'liga, xushro'y
xotiniga lom-lim
demay, orombaxsh

U hammaga eslatibdi
Go'dak pallasin.

Kuy kuchidan sehlantib
Hamma uxlabdi.
Buni ko'rib nay chalishtan
Cho'pon to'xtabdi...

VII

Avvalidan qo'ygan kabi
Ikkov kelishib,
Kutilmagan zo'r imkonga
Ular erishib:

– Yuring, – debdi so'ng malika –
Ketamiz qochib...
Ikki yoshga xizmatkorlar
Darvoza ochib.


Otboqarlar ikki saman
Ot egarladi.
Qanday ahvol ro'y berganin
Hech kim sezmadibdi...

14

qirg'ish chizig'i

Ovozasi saroyga ham
Yetib boribdi.
Bu xabardan xon dahshatga
Tushib qolibdi.

Mirshablarni huzuriga
Chaqirib shu on,
Debdi: – Darrov kelitirilsin
Yaylovdan cho'pon!




9

o'stirishga
muvaffaq
bo'lishibdi.
Aqlli o'g'litola-
ona bag'rda
kamol topib,
yaxshi o'qib,
ul k an
qishloqda
Tohir bog'bon
degan nomni
olibdi. O'ziga
o'xshagan
istarasi issiq,
mehnatsevar
qizga
uylandi.
To'ydan keyin
bu o'g'il-kekin ota-onaga ta'zim qilishib, bir
paytlar ular aytgan gapni qaytarishibdi:

– Hurmatli otajon va onajon! Bizlarning eng
katta davlatimiz sizlar. Baxtimizga yuz yil umr
ko'ringlar. Uymizning to'ri sizniki, hammasi siz
uchuni! – de'vishibdi.

22



2007-yil
«Tong yulduzi» kutubxonasi



9

Kanizak ham uning so'zin
Tasdiq etibdi.
Cho'pon nayin qo'lga olib
Chala ketibdi...

Sirdosh, dugona.

Kecha-kunduz birgadirmiz

Emas begona.

Bu qiz esa kanizagim,

Xonning yolg'izi.

– Men, – debdi u, – malikaman –

Qizarib yuzi.

Birozgina imanibimi,

Hamda o'zini.

Tanitibdi hamrohini

Shu qiz so'zini,

So'ngra yana davom etib

Zinhor yo'q demang!

Jon og'ajon, chalib bering,

pashsha ham jonivor, ozor berma, gunoh bo'ladi.
Bor, sho'rvangni ichib, darsingni tayyorla,
toychog'im.

Yoqimtoy Qahramon buvisining ko'yligidagi
pashsha teshgan yerni ko'rsatdi.

– Mayli, ko'ylak topiladigan narsa.

– Odamlar-chi?

– Topilmaydi.

– Rahmat, buvijon, pashsha odamlarga

qo'nmasin va ularga kasal yuqtirmasin. Ha,

pashsha haqida yomon gap ko'p. Xullas,

pashsha zararli, buvijon. Pashshaga rahm qilish

mumkin emas.

Shu orada «taq» etgan ovoz eshitildi.

– Qoqqonga sichqon tushdi. Yugur.

Qahramon yerto'laga tushib, chalajon

sichqonni qalin qog'oz yuziga yotqizib, olib

chiqdi. Is bilgan pashshalar darrov g'uvillashib

unga yopishdi. Shohida buvi uni ko'rib jirkandi

va ichida: «Halol-haromni farq etmagan

pashshalarni ajal chaqirsin», deb qo'ydi. Shum

pashshalar esa «jalga tutqich berib bo'pmiz»,

degandek, har tomonga g'uvillab uchib qochdi.

25

Natijada behuda o'yinlardan kata zarar ko'rib, ko'zim moshday ochildi!—debdi. Paytdan foydalangan yooqimtoy «5» esa dadasiga aniq eshittirib:

— Ana shunday aqlli bola bo'la turib, shumshuk «2»ni yelkangga mindirib yurganini qara-ya, azamat! — debdi. Jahldan tushgan dadasi esa o'z o'g'liga qarab:

— Iya, hali shundaymi? Uyat senga, o'g'lim! —deyish bilan oq, maktabdan chiroyli xat kelib, uni darrov ota-onalar majlisiga chaqirib ketibdi.

U ota-onalar majlisiga borsa, yaxshi kiyingan o'qituvchi o'quvchilar orasidan shumshuk «2»ni tezda yo'qotish to'g'risida ota-onalarga maslahat berayotgan ekan.

Shundan keyin shumshuk «2»ni yo'qotishga bo'lgan harakat juda keskin tus olibdi. Shumshuk «2» esa o'z ishongan do'stlarining oldiga borib, vogaani darrov bayon qilibdi. Hamma ishongan do'stlari — behuda o'yinlar baravariga:

—Tulkilik qilib, oxirida o'zing kabi bizni ham hammaga shumshuk ko'rsading, yo'qoli! —deb uni haydab yuborishibdi. Nihoyat, u laqma Ulyugusa

29

I
Bir yosh cho'pon makon aylab
Anu bo'yalarin,
Keng maydonda bogar ekan
Xonlik qo'yalarin.

Yakka-yolg'iz yashar ekan,
So'qqa bosh ekan.
Olapani handa nayo
Chin yo'ldosh ekan.

O'z kasbini sevganligi
Bois bag'oyat.
Yolg'izlikdan qilmas ekan
Aslo shikoyat.

Haydab ketar qo'yalarini
Chiqmasdan quyosh.
Sero't joyda boqib yurar,
Qorayguncha qosh.

Chiqib xarsanglar ustiga
Chalar ekan nay.

2

qirg'ish chizig'i

Alik olib cho'pon debdi:
— Xush kelibsizlar!
Sayr etibni yaylovga ot-
Yeldiribsizlar.

Jilva bilan cho'ponga bir
Tashlab ko'z qirin:
— Ha, biz qal'adamiz, — debdi
Qizlarning bir.

— Chiqqan edik biroz yayrab
Jayhun bo'yida.
Xush havoda ko'ngil ochib
Qayimog' o'yida.

Uzoqlardan eshittilib
Nayning sadosi.
Bizni mafun etib qo'ydi
Zavqli navosi.

Ot yeldirib topib keldik
Bu yerni arang.

5

18

— Rostdanmi? — deya uni mahkam quchibdi.
oppoq tongdek yorishgan ota:

— Men biror narsani so'ramay olish va chekishni qayta «havas» qilmayman. Meni kechiring, dadajon! — deyishi bilan oq, pok dili oppoq tongdek yorishgan ota:

— Men biror narsani so'ramay olish va chekishni qayta «havas» qilmayman. Meni kechiring, dadajon! — deyishi bilan oq, pok dili oppoq tongdek yorishgan ota:

— Men biror narsani so'ramay olish va chekishni qayta «havas» qilmayman. Meni kechiring, dadajon! — deyishi bilan oq, pok dili oppoq tongdek yorishgan ota:

— Men biror narsani so'ramay olish va chekishni qayta «havas» qilmayman. Meni kechiring, dadajon! — deyishi bilan oq, pok dili oppoq tongdek yorishgan ota:

— Men biror narsani so'ramay olish va chekishni qayta «havas» qilmayman. Meni kechiring, dadajon! — deyishi bilan oq, pok dili oppoq tongdek yorishgan ota:

gulzor tomon yo'l olibdi...

Ota-bola bir sovuq qish o'tib, issiq yoz kelguncha eski uyadagi yaltiroq qutichaga qiy boqmay, uzoqqa chopib, toza havodan bahra olib, kundan kun kuch-quvvatga to'la beribdi. Yo'tallar to'xtab, sarg'aya boshlagan tekis tishlar oqarib, ochiq yuzlarga qizil rang yuguribdi. Kuch-g'ayratlari jo'sh urgan ota-bola ohak bilan silliq devor, dov-daraxtlarni oqlab, hovlidagi yosh tok va atirgullarni yaxshi parvarish qilibdi. Nihoyat, Azimbek dilida: «Chekib turib, birovg'a chekma deyish qiyin ekan. Men chekmasam, noqulay ahvol ro'y bermas edi. Shu bois dono xalqimiz aytganlaridek, o'rinsiz g'azab va jahlg'a zo'r bermay, avval o'zinga boqdim — chekshidan voz kechdim. Endi nog'ora qoqsam, chekmaslik haqida gapirsam, o'g'lim menga ishonib, so'zlarim inobatga o'tar», deb o'ylabdi. Payt topgan Nozimbek unga muloyim boqib:

13

Eng so'nggida ijro etib
«Ona allasi»n.

To'tamasdan cho'pon o'tib
Uchinchiy kuyga,
Saroy ahlin solibdi u
Ajib bir ko'yga.

Ikkinchi kuy ohangida
Shovullab daryo,
Oqar emish saroy ahlin
Poyidan go'yo...

Ko'zlarini chirt yumgancha
Bir kuy boshlabdi.
Saroy ahli beixtiyor
Ko'zin yoshlabdi...

Cho'pon behad to'qinlanib
Lekin shoshilmay,
Kishan ezgan qo'llariga
Asta olib nay.

VI

10

Cho'ponga ko'p azob berib
Yurgizibdilar...

Shiddat bilan qaramasdan
Sog'-u-so'liga.
Darhol kishan solibdilar
Ikki qo'liga.

Ne falokat ro'y berdi, deb
Bo'libdi hayron.
Mirshablar-chi, uning bag'rin
Etishib vayron.

Olapari qattiq-qattiq
Xuribdi birdan.
Cho'pon qarab mirshablarni
Ko'ribdi birdan.

Cho'pon yigit tosh ustida
Xayolga tolib.
O'tirarkan ijod qilib,
Nayini chalib.

V

12

Bor ekan-da yo'q ekan, yulduzi yulduziga
Ular doim ota-onalariga «Mehr-muruvvatli otajon va otajon, uning to'ri har doim sizlarniki!» deyishar ekan. Halol mehnat qilishib, vorug', dunyoga kelgan shirin o'g'lim, o'g'lim zo'r mehr bilan

QAYTAR DUNYO

ishonibdi.

achchiq yig'lab, izlaganda topilmay, keyin yo'qolab kelgan ota-onasi bag'riga otulibdi. Xursandlikdan tush yo'q o'g'ligini bilolmay qolgan ota-onaga oyijon va dadajon, deb qattiq yopishgan o'z o'g'ligini mahkam bag'riga bosib, uning peshonasidan o'pib, ko'zlaridan duv-duv yosh kibdi. Shundan keyin quvongan bola baxtiga uchrab bolgan soch-sopollari oppoq saxiy boboning: «Yig'lama, bo'tam! Bol shirin, boldan bola shirin, deganlaridek, o'z shirin bolasidan hech qachon voz kechmaydi ota-ona!» degan gaplariga ishonibdi.

26



Qahramon joni uzilgan sichqonni chuqur yetga ko'rib, rezinali tayog'cha bilan sip-silliq devorga qo'rib turgan semiz pashshani boplab bir tushirdi. Shundan keyin u qiziqib ketib, bir zumda ikkinchi va beshinchi pashshani urib quladi. Shohida buvi dilida: «Qahramon tashqariga chiqib, rezinkali tayog'chani shunga yasab kelgan ekan-da», deb hang-mang bo'lib goldi.
Endi rahmdil buvim meni kuyib, o'lgan pashshalarga aza tutsalar kerak, deb o'yiladi Qahramon. Lekin kutilmaganda Shohida buvi unga xush boqib:
—Ajab qilding! Hammasini qirib tashla! — dedi.

oyog'i og'rib, voy-voylab chiqibdi. Po'latjon uchunchi kuni rosa rog'atka otibdi. Bir zamon past devorga qo'ngan olachipor chumchuqni otaman deb, o'zini oftofga solib turgan semiz, olabuzoqning chap ko'zini ko'r qilib qo'yibdi-da, qo'rqanidan qo'lidagi rog'atkani o'choqdagi olovga otib yuboribdi.

Dadasi kechqurun ishdan qaytib, undan:

– Olabuzoqning chap ko'zini kim ko'r qildi? – deb so'rabdi. Shunda u:

– Men ko'r qildim, – deb dadasiga to'g'ri javob beribdi. Dadasi g'azablanib:

– Sen buzoqning ko'zini ko'r qiladigan «mergan» bo'lib qoldingmi? Men seni qattiq xafa qilaman, – debdi. Shunda shumshuk «2» bir burchakda tomosha qilib o'tirardi. Yoqimtoy «5» esa igr'ib o'rmidan turib:

– Po'latjonning rost gapirgani uchun bu gal kechiring, amakijon! – debdi-da, uni darrov dadasining qo'lidin qutqarib olibdi. Rostgo'y Po'latjon unga yalt etib boqib:

– Menga rahmdillik qilganliging uchun rahmat, do'stim! Men seni yakka qo'yib, shu paytgacha o'zimni o'zim aldab kelgan ekanman.

28

Sirli kuyilar uchar ekan
Naydan paydar-pay.

Navosiga jo'r bo'larkan
Qo'ylar marashib.

Jo'r bo'larkan jo'shqin Amu
Mavj urib, toshib.

Bu xush kuyilar parvoz etib
Qirlar osharkan.

Cho'pon kuyilar og'ushida
Quvnoq yasharkan...

II

Bir kun baland tog' ustida
Cho'pon nay chalib,

Yaratgan sho'x kuyidan
O'zi zavq olib.

O'tirarkan olapari
Xura boshlabdi.

Cho'pon uzoq-uzoqlarga
Nazar tashlabdi.

3

19



Xushro'y ona quvonibdi.
Shundan keyin ota-bola «Tursang so'zingda
– hurmat yuzingda», degan qimmatli maqolga
tan berib yashayverishibdi.

Amringizni bekor qiling,
Yechsinlar qo'lin.
Bizlarga nay chalib bersin,
Ko'rsating o'rin.

Nay navosin shaydosiman,
Zavq olay so'ng bor.
Mayli, keyin ne qilsangiz
Sizda ixtyor...

Otjonim, so'zinni rad –
Elsangiz agar,
Ogoh bo'ling, men harn hozir
Ichaman zahar...

Shox noiloj debdi: – Bo'lsin
Seningcha qizim.
Lekin farnon o'zgarmaydi
Qat'iydir so'zim...

Qiz cho'ponga imo qilib
O'tmayin fursat
Debdi: – Endi kuyilaringning
Qudratin ko'rsat...

12

qirg'ish chizig'i



Olib borib xon oldiga
Kingizbidilar.

Odob bilan xonga salom
Beribdi cho'pon.
Xon o'limga buyuribdi
So'ramay shu on.

Shu payt birdan paydo
Bo'lib xon qizi.
Manglayida bor-yo'g'i
Yakka-yolg'izi.

Jallodlarning yo'lin to'sib
Ko'zdan to'kib yosh,
Olasining oyog'iga
Qo'yibdi u bosh.

Debdi: – Ayb yo'q bu yig'ida
Uning qalbi pok.
Yosh umirini xazon qilib
Aylamang halok!

11

CHIN OTA-ONA

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, o'z huzur-halovatini ko'zlagan, sirti yaltiroq, ichi qaltiroq ota-ona bor ekan. Ota-ona bita-yu bita begunoh bolani o'rmonda adashitirib, o'zlari g'oyib bo'lgan ekan. Shu-shu ota-ona hech kimga sir boy bermay, keng uyda beparvo yashar ekanlar. Nihoyat, bir kuni ota-ona qulog'iga g'oyibdan: «Bolasini borming chirog'i o'chmas, deganlar. Bir umr tirmoqqa zor bo'lmaylik va chirog'imiz o'chmasin, desangiz, g'afilda yotmay, tezda yo'lga tushinglar!» degan ovoq eshitilirdi. Ota-ona o'z qilmishidan pushaymon yeb, bolasizlikdan zerikib, kuchli yomg'irda yuvilib, issiq quyoshda toblangan o'rmon tomon yo'l olibdi. Ular yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, to'g'ri o'rmonchi bobo oldiga yetib borishibdi. O'rmonchi bobo ota-ona so'zlarini tinglab, «adashgan» bolani chag'iribdi.

Ziyrak bola ichkari uydin:
– Labbay, aziz bobojon! – deya ovoq chiqarib, chopib kelibdi va katta o'rmonda

20

27



Ko'rindibdi kelayotgan
Ikki chavandoz.
Ikki saman ot ustida
Ikki sarvinoz.

Yetib kelib chavandozlar
Otlardan tushib,
Unga salom beribdilar
Ta'zim otilishib.

4

5 VA 2

Bor ekan-da yo'q ekan, Po'latjon degan yorqin ko'z, shirinso'z o'quvchida yoqimtoy «5» baho bilan shumshuk «2» baho bor ekan.

Kunlardan bir kuni yakalanib qolgan yoqimtoy «5» shumshuk «2»ga qarab:

– Menga nega hadeb ko'zingni olaytiraversan, nodon? – debdi. Shumshuk «2» esa unga battar ko'zini olaytirib:

– Yaxshilikcha hozir jo'nab qol, bo'lmasa xafa qilaman! – debdi. Yoqimtoy «5» juda botir ekan, unga bo'sh kelmay:

– Qani, ko'ramiz, kim jo'nab qolar ekan! – debdi. «2» bunday qarasa, bir so'zli yoqimtoy «5»ning avzoyi boshqacha bo'lib ketibdi. Shunda u o'zidan xavfsiranib, oyog'i kuygan tovuqday har tomonga yuguribdi. Hamma behuda o'yinlarni aldab-suldab ishga solibdi. O'sha kuni maktabdan qaytgan Po'latjon behuda o'yinlarga yana berilib, kun botguncha yong o'q o'ynab, bir xalta yong'oqning hammasini bolalarga yutqazib qo'yibdi. So'ngra, yong'oq o'ynashdan hafsalasi pir bo'lib, ikkinchi kuni qosh qorayguncha lanka tepibdi, tuni bilan

Bolalar maslahatxonasi

MEVA YOKI SHIRINLIK:
QAY BIRI FOYDALIROQ?!

Yoz faslini yaxshi ko'rasiz-a?! Albatta, yozgi ta'vil, uning ustiga mevalar g'arq pishgan palla... Olma, o'rik deysizmi, qovun, tarvuz yeysizmi?!

Shifokor opalaringiz mevalarni iste'mol qilganingizda, ayrim tavsiyalarga rioya qilishingizni uqtirishadi. Ulardan ba'zilarini bugun sizlarga eslatib o'tmoqchimiz:

«OLMA PISH, OG'ZIMGA TUSH»

Bu gapni ko'pincha tayyoriga o'rgangan, harakatsiz kishilarga nisbatan ishlatishganini eshitgansiz-a? Nisbat qilinsa mayli-ya, lekin hayotda bunday qilish yaramaydi. Mevalarni iste'mol qilishdan avval ularni yuvishga erinmang! Hech qachon va hech qanday mevdadan keyin sovuq suv ichmang! Umuman, yozda sovuq choy yoki qaynatib sovutilgan suv ichish lozim.

O'ZIDAN MAG'ZI SHIRIN

Ha, bu siz sevgan o'rik. U qanchalik foydali bo'lmasin, uni birdaniga ko'p iste'mol qilishni shifokorlar maslahat berishmaydi. Chunki o'rik ichaklarda gaz to'plagan bo's, sizni bezovta qilib qo'yishi mumkin. Ayniqsa, o'rikning uzoq vaqt oftobda qolganini iste'mol qilishdan ehtiyot bo'ling! Shuningdek, och qoringa va qiyin hazm bo'ladigan ovqatlardan keyin o'rik yemaganingiz ma'qul. Bu mevani kattalar «yurakka foydali» deb maqtashadi. Uning danagini chaqib yesangiz, yana ham foydaliroq. O'rik danaklarini yig'ib chaqing-da, onangizga bering, «shirin danak» tayyorlab berishadi. Bunda danak mag'zi tovada shakar sepib qovuriladi.

QOVUN YEYSIZMI, TARVUZ?!

Otangiz bozordan qovun, tarvuz olib kelsa, quvonib ketasiz-a?! Hammadan ko'pini ham o'zingiz yeysiz... Lekin qorin og'rig'i esingizdan chiqmasin! Tilim-tilim qilib kesilgan qovun, tarvuzni tag po'chog'igacha yemang. Shuningdek, haddan tashqari muzlatilganlari nafaqat tomog'ingizga, balki oshqozoningizga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pchilik bu poliz ekinlarini kechki ovqatdan so'ng iste'mol qilishga odatlangan. Lekin ovqatdan keyin darhol choy ichish mumkin bo'lmaganidek, qovun, tarvuzni ham yeb bo'lmaydi. Yaxshisi, biroz muddat o'tib, ovqat hazm bo'lganidan keyin iste'mol qilangani ma'qul.

Bilasizmi, meva va sabzavotlar o'zini o'zi hazm qildirish xususiyatiga ega ekan. Shuning uchun ular tanamizda tez va oson hazm bo'ladi.

DARMONDORILAR «HAYOT» DEGANI

Shirinliklarni hammangiz yaxshi ko'rasiz. Lekin ulardan ko'ra meva va sabzavotlar foydaliroq ekanligini ham bilasizmi? Siz sevgan rang-barang chanqovbosdi ichimliklarga bo'yoq qo'shib, kimyoviy ishlov berilishini-chi? Mutaxassislar ta'kidlashayotganidek, shokoladlarning ham foydali xususiyatlari kamroq ekan. Yozning issiq kunlarida yaxshisi ularning o'rnini bosuvchi va ming bor foydaliroq bo'lgan tabiat ne'matlaridan bahra oling. Ovqatlanayotganingizda ko'pincha pishgan sabzi, lavlagi, sholg'om kabi sabzavotlarni bir chekkaga surib qo'yasiz. Axir ularda sizning sog'lom va baquvvat bo'lib o'sishingiz uchun zarur bo'lgan vitaminlar mavjud-ku! Masalan, qizil sabzi bo'yni o'stiradi, lavlagi esa qonni ko'paytirib, sizning tetik yurishingizga xizmat qiladi. Darmondori so'zining lug'aviy ma'nosi esa «hayot» degani ekan. Demak, ularning sog'ligimiz uchun qanchalik zarurligini anglab yetish qiyin emas. Aziz bolajonlar, yoz fasli sizga tuhfa etayotgan ne'matlardan bahramand bo'ling. Me'yori va ozodalikka rioya qilishni esa unutmang!

Sayyora JO'RAYEVA

MENING XORIILIK DUGONALARIM

Avtobusda chiptachining ovozi negadir balandroq eshitildi.

– Ikki yuz so'm! Ikki yuz so'm!

Qarshisida turgan ko'zoynakli odam esa sira tushunmay, atrofga olazarak bo'lib: – «Tu, tu», – derdi.

– Men gap nimadiligini tushundim-da, sakrab turib, chiptachi va xorijlik mehmon oldiga bordim.

– Men sizga yordam beraman, – dedim inglizchalab.

Mehmon xuddi yelkasidan tog' ag'darilgandek xursand bo'lib ketdi.

– Rahmat! Rahmat! – dedi u.


O'sha paytda men birinchi marta o'zga tilni bilganimdan xursand bo'lib ketdim. Hozir men nafaqat ingliz, rus, balki koreys tilini ham mukammal o'rganmoqdaman. Chunki Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti qoshidagi xorijiy tillar litseyida koreys sinfida tahsil olaman.

Til esa dillarni birlashtiradi.

Ana shu tillarni bilganim bois, men ko'plab do'stlar orttirdim.

Ulardan biri Sorolina. U Amerikaning Oklaxoma shtatidan. Men Sara bilan bir necha yildan buyon xat yozishaman. Sara – «malika», layn esa «sharshara» so'zini bildirar ekan. Sorolina basketbol va softbol o'yinini, shuningdek, rok musiqasini sevadi. Uning ikki nafar opasi, ota-onasi, buvisi va bobosi bor ekan. Sara bilan xat yozishar ekanman, uning oilasi ham menga qadrdon bo'lib qoldi. Hatto opasi betob bo'lib qolganida tashvishlariga sherik bo'ldim. Hozir ularning hammasi sog'-salomat. Otasi o'z kompyuteri, onasi xayriya tadbirlari, bobosi esa hovli to'la qushlari, quyonlari va kuchugi bilan band. Saraga vaqti-vaqti bilan jo'natib turadigan esdalik sovg'alarim unga juda yoqadi va u O'zbekistonning milliy an'analari haqida hayratlanib o'qiydi.

Yana bir dugonam Janubiy koreyalik Kipmdir. Kipm degani koreyscha xushchaqchaqlik, shodlik degan ma'noni bildiradi. Ismiga mos Kipm ham



juda quvnoq qiz. U Janubiy Koreyaning Seul shahrida o'qiydi. Otasi O'zbekistonga tadbirkorlik ishlari bilan kelgan.

Kipmlar bir necha yil O'zbekistonda yashashdi. Men dugonam bilan tez-tez uchrashib turdim. Bu menga so'z boyligimni oshirishga, nutqimni o'stirishga yordam berardi. U o'z tug'ilgan kuniga barcha do'stlari qatori meni ham taklif qildi. Dasturxonga koreyslarning milliy taomlari bo'lgan kim-chi, kuk-si qo'yilgan edi. Oyisi esa bizlarga kuch-quvvat bag'ishlovchi daraxt yaproqlaridan tayyorlangan damlama berdi. Shunisi quvonarliki, ularga o'zbek xontaxasi nihoyatda yoqib qolgan va ular doim xontaxta atrofida o'tirib ovqatlanishni yaxshi ko'rishar ekan.

Biz Kipm va guruhimdagi dugonalarim bilan Ulug'bek nomli istirohat bog'iga, keyin esa Toshkentdagi Noreybangga bordik. Nore degani «musiq», bang degani esa «xona» ma'nosini anglatadi.

U yerda mashhur kinolarga ishlangan sauntreklarni birga ijro etdik.

Men Kipm va Saralar oilasida davlatimiz, millatimiz va urf-odatlarimizga nisbatan bo'lgan chuqur hurmatni ko'rib, nihoyatda xursand bo'laman.

Parizod SUYUNOVA,
ToshDSHI qoshidagi Xorijiy tillari
akademik litseyining bitiruvchisi

Ta'vil taassurotlari

QISHLOQ O'ZI
OROMGOH

Nogaxon qishlog'imiz juda xushmanzara, hamqishloqlarimiz samimiy va dilkash insonlar. Yo'llarimiz tekis. Shahardan farqlay olmaysiz.

Qishlog'imizda bir ko'l bo'lib, undagi suv ko'k tusda to'lqinlanib, mavjlanib turadi. Ko'lda o'rdak, g'ozlar suzib, ko'zlarni quvontiradi. Kattakon futbol maydonchasi, unda sport musobaqalar o'tkazib turiladi. Qishlog'imizning o'zi oromgoh.

Men qo'limga mo'yqalam olishimga ham Nogaxon qishlog'ining sehrli tabiati, undagi qulay sharoitlar sabab, deb o'ylayman.

Azizaxon
IBODULLAYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qamashi tumanidagi A.Navoiy
nomidagi 10-maktabning
7- sinf o'quvchisi



MAROQLI KUNLAR

Fizika va matematikaga ixtisoslashtirilgan maktab-internatimiz qoshida «Orom» nomli yozgi sog'lomlashtirish dam olish maskani tashkil etiladi. Oromgohda ma'naviyat xonasi va jonli burchak doimo bolalar bilan gavjum. Yana raqs, bichish-tikish, rassomchilik, ingliz tili to'garaklari tashkil etilgan bo'lib, tarbiyachilarimiz Odina opa Haydarova, Gulsoraxon opa Otashevalardan ta'lim olamiz. Qo'li mazali oshpazlardan Jannatxon va Oysara opalarimiz tomonidan mazali taomlar tanavvul qilamiz. Sport murabbiyimiz Azimjon aka Jo'rayev o'tkazgan musobaqalar qizg'in bo'ladi. Oromgohimizda «Quvnoqlar va zukkolar», «Oromgoh o'g'loni», «Oromgoh malikasi», «Oltin toj» ko'rik-tanlovlarida dam oluvchilar faol ishtirok etib, g'olib bo'lganlar esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadi.

Fotima va Zuhra ASRANOVALAR,
Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi
14-fizika va matematikaga ixtisoslashtirilgan
maktab-internatining 7-sinf o'quvchilari

Xalq Yodlari



MEN «AEROPORT» BO'LAMAN

Adabiyot darsida:

– Hozir mana bu 500 so'mlik pulimdan samolyot yasab, sinfda uchirib yubora olmaymanmi? – dedi Nodir ohista shivirlab do'sti Akmalga.

– Uchiraver, men «aeroport» bo'lib, uni qabul qilib olaman...

*Dilshod IMOMOV,
poytaxtdagi 14-maktab o'quvchisi*



BU MENING OTAM

Rene juda dangasa bola. Maktabga borishni sira xohlamaydi. Bir kuni uyidan o'qituvchisiga qo'ng'iroq qildi:

– Allo, Rene kasal, bugun maktabga borolmaydi.

– Kim gapiryapti? – so'radi o'qituvchisi.

– Bu mening otam, – javob berdi

Rene.

HOZIRJAVOB BOLA

– Roto, Karl V ning otasi kim?

– Karl IV.

– Yaxshi, Fransik I ning otasichi?

– Fransik nol-da, janob...



*Fransuzchadan Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi
5-maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi Zilola
MASHARIPOVA tarjimasi*

TOPISHMOQLAR

Kichkina bir quticha,
Yuzlab odam ichida.



Do'stim uzoqda asli,
Yaqindan kelar sasi.



Dilnavoz SAIDOVA,

*Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi X.Boqiyev nomli
1-ixtisoslashtirilgan maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi*


Katta varaq, dumi taroq,
Akasining ismi quroq.



O'zi tanho, yagonadir,
Tabiatga chin onadir.




Tanasi bor, boshi yo'q,
Qo'li bor, oyog'i yo'q.



Bobomdan qolgan bog'im,
Umr yo'lda chirog'im.

*Shirinoy NASIMOVA,
Zuhra QODIROVA,
Samarqand viloyati,
Pastdarg'om tumanidagi
85-maktab o'quvchilari*

«SVETOFOR» CHAYNVORDI



1. Xalq xo'jaligining yo'lovchi va yuk tashish vositalarini tashkil etuvchi sohasi.
2. Transport harakati sur'ati.
3. Suv qirg'oqlarni birlashtiruvchi yo'l inshooti.
4. Yo'l harakati nazoratchisining xizmat joyi.
5. Umumiy bir vazifani bajarish uchun bir necha mashinadan tarkib topgan texnika.
6. Qattiq jins, yo'l qurilishi ashyosi.
7. Temiryo'lni kesib o'tish joyidagi ko'tarma to'siq.
8. Rossiyada ishlab chiqarilgan yengil avtomobil markasi.
9. Ko'chalar kesishgan joy.
10. Ko'p o'rinli avtomobil transporti.
11. Ko'cha harakatini tartibga soluvchi elektr signalli texnika.
12. Transport vositalarining belgilangan yo'nalish bo'yicha bir marotaba qatnovi.
13. Avtomobildagi harakat tezligi va bosib o'tilgan masofani ko'rsatuvchi asbob.
14. Avtomobilning barcha qismlari o'rnatiladigan qurilmasi.
15. Kishining bevosita ishtirokisiz, uning nazorati ostida ma'lum dastur asosida ichki mexanizm yordami bilan o'z-o'zidan ishlaydigan qurilma.
16. Elektr transporti turi.
17. Ko'cha qismi.
18. Ko'cha va yo'llarga yotqizish uchun ishlatiladigan smolasimon qoramtir ashyo.
19. Yo'l harakatidagi e'tiborsizlik oqibatida ro'y beruvchi noxush holat.
20. Odam va yuk eltishga mo'ljallangan temiryo'l vositasi.
21. Yo'l harakatini kuzatish, tartibga solish.
22. Transport vositasi harakatini sekinlashtiruvchi va to'xtatuvchi qurilma.
23. Harakatda qoidaga rioya qilmaslik oqibatida ro'y beruvchi kuchli urilish holati.

MUAMMONOMA

Endi chaynvord javoblari asosida quyidagi raqamlar juftini (birinchisi, javob so'zi, ikkinchisi esa harf tartibini anglatadi) harflar bilan almashtirib, muammonomani hal eting.

2-4; 6-2; 19-4; 13-4; 20-4; 1-4.

Ulardan dunyoda birinchi bo'lib ko'chalardagi transport vositalari harakatida svetofordan foydalanilgan poytaxt nomini bilib olishga muvaffaq bo'lasiz.

Bu o'ziga xos voqea nechanchi yilda amalga oshirilganligini bilasizmi?

Foziljon ORIPOV tuzdi



Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizayner va
sahifalovchi:
Fazliddin
SHOYODGOROV

Navbatchi:
Muharrama
PIRMATOVA

Gazeta
O'zbekiston
matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh
muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV,

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel./ faks: (99871) 144-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV.

Noshir:
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
Gazeta «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi. Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 20636
Buyurtma N: J 3847